

*“O‘zavtosanoat” AJ Kuzatuv kengashi majlisining
2025-yil “30” sentabrdagi 4-2025-sonli Bayoniga
13-ilova*

**“O‘ZAVTOSANOAT”
AKSIYADORLIK JAMIYATINING
XAYRIYA VA TIJORAT HOMIYLIGI BO‘YICHA
SIYOSATI**

Toshkent - 2025 yil

1. Siyosatning maqsadi va qo'llanish sohasi

1.1. Ushbu Siyosat "O'zavtosanoat" AJ (keyingi o'rinlarda "Kompaniya" deb ataladi) tomonidan xalqaro Komplayens talablari va amaldagi qonunchilikka muvofiq xayriya va tijorat homiyligini amalga oshirishda rioya etilishi majburiy bo'lgan tamoyillar va qoidalarni belgilaydi.

1.2. Siyosatning maqsadi xayriya va tijorat homiyligini amalga oshirish xarajatlarini rejalashtirish va samarali boshqarishning shaffofligini ta'minlash, Komplayens xatarlarini minimallashtirish va xayriya va tijorat homiylik sohasida qaror qabul qilishning yagona standartini belgilashdan iborat.

1.3. Siyosatda ikki turdagi yordam: Xayriya va Tijorat homiyligi ko'rib chiqiladi. Kompaniya xayriya yoki tijorat homiyligini Siyosatda belgilangan tamoyillarga muvofiq amalga oshirilgan taqdirdagina yordam ko'rsatadi.

1.4. Xayriya va tijorat homiyligi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- Qonuniylik – huquqning haqiqiy amal qilishini belgilovchi huquqiy rejimga rioya qilishdan iborat bo'lib, bunda barcha shaxslar qo'llaniladigan qonunchilikka qat'iy rioya etadilar. Shu bilan birgalikda, Korrupsiyaga qarshi kurashishning xalqaro talablariga va qonun hujjatlariga muvofiq barcha operatsiyalarni hujjatlar bilan rasmiylashtirilishi tushuniladi;

- Ixtiyoriylik – Kompaniyaning xayriya yoki tijorat homiyligi ko'rsatish huquqini belgilaydigan huquqiy rejimga rioya qilinishini anglatadi va yordam oluvchilar tomonidan majburlash holatining yo'qligi, Kompaniyaning xayriya loyihalarida ishtirok etishdan bosh tortish huquqining mavjudligi tushuniladi;

- Shaffoflik – Kompaniya va oluvchining xayriya yoki tijorat homiyligida ochiq ishtirok etish huquqini belgilaydigan huquqiy rejimga rioya qilinishini anglatadi va yordam oluvchilarni tanlashning aniq mezonlari, yordamdan maqsadli foydalanilishining nazorati, xayriya va tijorat homiyligi loyihalarining natijalari to'g'risida muntazam hisobot e'lon qilib borish tushuniladi;

1.5. Siyosat Kompaniya, Xodimlar, Biznes hamkorlar, Nazorat ostidagi korxonalariga nisbatan qo'llaniladi.

1.6. Kompaniyaning nazorat paketi ulushiga ega bo'lmagan korxonalar ham mazkur Siyosatga yoki shunga o'xshash standartlarga rioya qilishlari nazarda tutiladi.

1.7. Siyosat rioya qilinishi kerak bo'lgan minimal standartni belgilaydi. Agar qonun hujjatlarida yuqoriroq talablar belgilangan bo'lsa, Kompaniya ushbu talablarga rioya qiladi. Agar Nazorat ostidagi korxonalar Siyosatda ko'rsatilganidan pastroq talablarni belgilovchi standartni qabul qilmoqchi bo'lsa, u Komplayens, ishlab chiqarish va moliyaviy xavflarni monitoring qilish departamentining (keyingi o'rinlarda – "Komplayens departamenti") yozma roziligini olishi shart.

2. Asosiy tushunchalar

Qo'llaniladigan qonunchilik – amal qilinishi shart bo'lgan barcha normativ-huquqiy hujjatlar, shu jumladan, agar qo'llanilsa, ular bilan cheklanmagan holda: O'zbekiston Respublikasi, AQShning korrupsiyaga qarshi kurashish, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlari, shuningdek, AQSh, Buyuk Britaniya va Evroittifoq hukumatining sanksiyalar va eksport nazoratiga oid qonun hujjatlari hamda biznes hamkor ro'yxatdan o'tgan joyda yoki u joylashgan mamlakatda amal qiladigan korrupsiyaga qarshi qonunchilik nazarda tutiladi.

Homiylar – homiylikni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar.

Oluvchilar – xayriya yoki tijorat homiyligini oluvchi yuridik va jismoniy shaxslar.

Nazorat ostidagi korxonalar – Kompaniya ovoz beruvchi aksiyalarining (ulushlarining) yigirma foizidan ko'prog'iga ega bo'lgan yoki ustav jamg'armasida ustun mavqega ega bo'lgan, Kompaniya tarkibidagi va (yoki) sho'ba korxonalar, qo'shma korxonalar va boshqa tashkilotlar.

Davlat organi – davlat fuqarolik xizmati tatbiq qilinadigan davlat organlari va tashkilotlari ro'yxatiga kiritilgan davlat hokimiyat vakolatlariga ega bo'lgan tashkiliy jihatdan alohida tuzilma.

Davlat fuqarolik xizmati lavozimi – davlat organining vakolatlarini amalga oshirish uchun Davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining davlat reestriga kiritilgan lavozim.

Davlat fuqarolik xizmatchisi – davlat fuqarolik xizmati lavozimida o'z faoliyatini amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi.

Davlat ishtirokidagi tashkilot – ustav fondida davlat ulushi mavjud bo'lgan tijorat tashkiloti yoxud to'liq yoki qisman davlat organi tomonidan tashkil etilgan yoki ta'sis etilgan notijorat tashkilot.

Siyosiy partiya – O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining qarashlar, manfaatlar va maqsadlar mushtarakligi asosida tuzilgan, davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda jamiyat muayyan qismining siyosiy irodasini ro'yobga chiqarishga intiluvchi hamda o'z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi ko'ngilli birlashmasi.

Xalqaro tashkilot – siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ilmiy-texnikaviy, huquqiy va boshqa sohalardagi hamkorlikni amalga oshirish maqsadida xalqaro shartnomaga asoslangan hamda xalqaro huquqqa muvofiq ravishda tuzilgan davlatlar birlashmasi.

Siyosiy ta'sirga ega shaxs – amaldagi yoki sobiq yuqori lavozimli amaldor, shu jumladan:

mahalliy davlat hokimiyati yoki o'zini o'zi boshqarish organlarining rahbari;

hukumat rahbari, vazir;

parlament deputati;

siyosiy partiyaning boshqaruv organi (kengashi) a'zosi;

Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud sudyasi yoki boshqa darajadagi sud organining sudyasi (sud organi a'zosi);

Markaziy bank kengashi yoki boshqaruvi a'zosi;

elchi (konsul);

inson huquqlari bo'yicha vakil yoki biznes-ombudsman;

Qurolli kuchlarning katta lavozimdagi ofitseri;

davlat ulushi bo'lgan kompaniya kengashi yoki boshqaruvi a'zosi;

xalqaro tashkilot rahbari.

Chetlatish muddati – bu siyosiy ta'sirga ega bo'lgan shaxs o'z davlat lavozimini tugatgandan keyin, ta'sirga ega hisoblanishda davom etadigan vaqt davri.

Davlat xizmatchilari ((davlat boshliqlari, vazirlar, deputatlar va boshqa yuqori mansabdor shaxslar) xizmat muddati tugaganidan keyin 5 yil;

Sudyalar (sud tizimida yuqori lavozimlarni egallab turgan shaxslar) pensiyaga chiqqandan yoki vakolatlari tugaganidan keyin 3 yil;

Harbiylar (oliy unvonli zobitlar va qo'mondonlar) pensiyaga chiqqandan keyin 3 yil;

Davlat ishtirokidagi tashkilotlarining rahbarlari (davlat ishtiroki bo'lgan kompaniyalarni boshqaruvchi shaxslar) vakolat tugaganidan keyin 3 yil;

Xalqaro tashkilotlar boshqaruvi a'zolari (xalqaro yoki hukumatlararo tashkilotlarda muhim lavozimlarni egallab turgan shaxslar) vakolat muddati tugaganidan keyin 3 yil;

Ushbu shaxslarning yaqin qarindoshlari ta'sirga ega shaxs lavozimini to'xtatganidan keyin 1 yil.

Biznes hamkor – mehnat munosabatlaridan tashqari, Kompaniya shartnomaviy munosabatlarga kirishadigan har qanday yuridik yoki jismoniy shaxs (kontragent, yetkazib beruvchi, distribyutor, diler yoki Kompaniyaning nomidan va topshirig'iga binoan yoki uning manfaatlarini ko'zlab harakat qilish vakolatiga ega bo'lgan boshqa uchinchi shaxs biznes-hamkorga misol bo'lishi mumkin).

Xodimlar/Xodim – mehnat shartnomasi asosida yoxud saylab qo'yiladigan yoki tayinlanadigan lavozimlarda mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirayotgan boshqaruv xodimi, uning o'rinbosarlari, tarkibiy tuzilma rahbarlari va boshqa ishchilar.

Xayriya mablag'lari – jismoniy yoki yuridik shaxslarga qaytarib olish va manfaat (foyda) ko'rish shartisiz, beg'araz yoki imtiyozli shartlarda yo'naltirilgan mol-mulk hamda pul mablag'lari, shuningdek ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish, boshqa qo'llab-quvvatlash bo'yicha faoliyatni ixtiyoriy ravishda amalga oshirish.

Ijtimoiy investitsiyalar – jamoat manfaati maqsadiga yo'naltirilgan naqd pul va natura shaklidagi investitsiyalar.

Tijorat homiyligi – Kompaniyani ommalashtirish, reklama maydoni yoki ommaviy yoritishning boshqa shakllarini taqdim etish yoki bozor bilan tijorat ma'lumotlarini almashish, yoxud "UzAuto" brendini, mahsulotlarini, xizmatlarini targ'ib qilish, shuningdek, savdo hajmini oshirish yoki Nazorat ostidagi korxonalar mijozlarining sodiqligini oshirish maqsadida Kompaniya obro'sini yaxshilash (masalan, ko'rgazma-yarmarkalar, konferensiyalar, sport tadbirlari va boshqalar) evaziga shov-shuvli tadbirlar, faoliyat turlari yoki tashkilotlarni pul yoki natura shaklida qo'llab-quvvatlash.

Manfaatlar to'qnashuvi – shaxsning shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi uning o'z lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari, qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan (mavjud manfaatlar to'qnashuvi) yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan (ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi) vaziyat.

Uchinchi tomonlar – korxonaning bir qismi bo'lmagan, lekin uning faoliyati bilan bevosita yoki bilvosita aloqador bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar.

Xodimga aloqador shaxslar – xodimning yaqin qarindoshlari hamda xodim va (yoki) uning yaqin qarindoshlari qaysi yuridik shaxsning ustav fondi (ustav kapitali) aksiyalariga yoki ulushlariga egalik qilsa yoxud unda boshqaruv organining rahbari yoki a'zosi bo'lsa, o'sha yuridik shaxs.

Yaqin qarindoshlar – ota-onalar, aka-ukalar, opa-singillar, er-xotinlar, farzandlar, shuningdek, er-xotinlarning ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari.

Xavf omillari («Red flags/ Qizil bayroqlar») – noqonuniy xatti-harakatlar, vijdotsiz xulq-atvor, poraxo'rlik yoki korrupsiyaning paydo bo'lish ehtimoli (mavjudligi) haqida ogohlantirishi mumkin bo'lgan, shu boisdan har qanday harakatlarni amalga oshirishdan oldin qo'shimcha tekshiruv o'tkazishni talab qiladigan salbiy ma'lumotlar, ko'rsatkichlar yoki holatlar.

Skrining – Oluvchini xavf omillari mavjudligi yuzasidan puxta tekshirish natijasi bo'yicha hisobot shakli.

3. Umumiy qoidalar

3.1. Xayriya va tijorat homiyligi qo‘llaniladigan qonunchilik talablariga, hisobotlarga, soliq majburiyatlariga bo‘ysunishi va daxldor xavflar bilan muvofiqlashtirilishi lozim.

3.2. Siyosatga muvofiq, xavflar bilan bog‘liq masalalarni hal qilish uchun xayriya va tijorat homiyligi turli xil dastlabki kelishuv mezonlari va jarayonga qo‘yiladigan talablarga ega.

3.3. Muayyan faktlar yoki holatlar qonunchilikni yoki me'yorlar talablarni buzish xavfini keltirib chiqarishi mumkin (“qizil bayroqlar”). Xayriya yoki tijorat homiyligini amalga oshirishni boshlashdan oldin ushbu xavflar bartaraf etilishi kerak.

3.4. Xayriya va tijorat homiyligi Hukumatning qaror, farmon va ko‘rsatmalari, Kompaniyaning tashabbusi yoki jismoniy va/yoki yuridik shaxsning so‘roviga binoan amalga oshiriladi.

Bunda, Hukumat yordam tashabbuslarini beradi, lekin ular xalqaro muvofiqlik standartlariga javob berishi, korrupsiya va pul yuvish bilan bog‘liq ehtimoliy xavflarni hisobga olingan holda amalga oshiriladi.

3.5. Kompaniya tomonidan olinadigan xayriya yoki homiylik yopiq mukofot shaklida bo‘lmasligi va Kompaniyaning alohida xodimlari tomonidan xayriya qiluvchi yoki homiy, uning yaqin qarindoshlari, ular bilan bog‘liq shaxslar, shuningdek, donor yoki homiy shaxsiy manfaatga ega shaxslar foydasiga qarorlar qabul qilinishiga ta'sir qilmasligi kerak.

3.6. Kompaniya qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda xayriya va homiylik yordamini qabul qilishi mumkin. Bunday yordamni olishda manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik, pul mablag‘larining O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi yoki shartnomada ko‘rsatilgan maqsadlarga samarali va maqsadli yo‘naltirilishini ta'minlash, shuningdek, xayriya va homiylik faoliyati to‘g‘risidagi ma'lumotlar Kompaniyaning internet tarmog‘idagi rasmiy veb-saytida ma'lum qilinishi uchun barcha choralar ko‘riladi.

3.7. Xayriya va tijorat homiyligi Kompaniyaning biznes obro‘cini (brendi va nufuzini) mustahkamlashning asosiy usullaridan biridir. Biroq Kompaniyaning homiyligi g‘ayriqonuniy ustunlikka ega bo‘lishga urinish deb qabul qilinmasligi yoki hisoblanmasligi kerak.

3.8. Xayriya va tijorat homiyligi faoliyati yozma shartnomalar asosida amalga oshiriladi. Ushbu shartnomalarda homiylik faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotchilarning poraxo‘rlik va korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi amaldagi qonun hujjatlarini buzadigan harakatlarni sodir etmaslik majburiyati nazarda tutilishi shart.

3.9. Xayriya va tijorat homiyligiga yo'naltirilgan barcha mablag'lar Kompaniya buxgalteriya kitoblarida va yozuvlarida aniq aks ettirilishi lozim.

3.10. Xayriya va tijorat homiyligini amalga oshirishda yoki qabul qilishda Kompaniyaning ushbu Siyosati hamda ichki tartib va qoidalariga, shuningdek, qo'llaniladigan qonunchilik va Kompaniyaning boshqa yuridik majburiyatlariga rioya qilinishiga mos kelishi bo'yicha tekshiruvdan o'tkazilishi kerak.

3.11. Xayriya va tijorat homiyligida to'lanadigan pul miqdori, oluvchining nomi, shuningdek aniq maqsadni ifodalaydigan tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lishi kerak.

3.12. Xayriya va tijorat homiyligi ko'rsatilishi:

- Kompaniya va tizim korxonalari faoliyatida qabul qilinadigan qarorlarga ta'siri bo'lsa;

- tender va tanlov jarayonlarida qatnashayotgan kontragentlar bilan bo'lgan munosabatlarda;

- Kompaniya ayni paytda xayriya (yoki tijorat homiyligi)ni so'ragan tashkilot (yoki tashkilot egasi) yoki xayriya (yoki tijorat homiyligi)dan foyda oluvchi tashkilot bilan ishbilarmonlik aloqalarini o'rnatgan, muzokaralar olib borilayotganda yoki so'rov ko'rib chiqilayotganda;

- homiy oluvchi bilan nizolar bo'yicha ko'rilayotgan sud jarayonlari vaqtida mumkin emas.

3.13. Xayriya va tijorat homiyligini:

- jismoniy shaxslarga (ijtimoiy himoyaga muhtoj va og'ir moliyaviy ahvolda bo'lgan shaxslardan tashqari);

- har qanday diniy tashkilotlarga;

- siyosiy partiyalar, tashkilotlar yoki nomzodlarga;

- davlat xizmatchisi yoki biznes hamkorga (homiyligni amalga oshirish nomaqbul ta'sir ko'rsatishga olib kelsa);

- korrupsiya yoki axloqqa zid xatti-harakatlarga aralashib qolgan yoki shunday nom chiqargan tashkilotga;

- yordamning yakuniy oluvchisi davlat xizmatchisi bo'lgan davlat sektorida amalga oshirilayotgan dasturga;

- so'rov Davlat tashkilotidan va/yoki vazifalari Kompaniya faoliyatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan Davlat xizmatchisidan kelib tushganda;

- so'rov shoshilinch xususiyatga ega bo'lganda;

- tijorat homiyligi Kompaniyaning biznes va marketing maqsadlari bilan yaqqol aloqasi yo'q bo'lganda;

- xayriya (yoki tijorat homiyligi)ning biznesni sotib olish yoki uni saqlab qolish yoki biznesga taalluqli boshqa imtiyozlarni olish (masalan, nazorat qiluvchi organlarning mavqeini o'zgartirish) uchun zarur deb hisoblashga asoslar mavjud bo'lganda;

- so'rov og'zaki ravishda amalga oshirilsa va Oluvchi so'rovni yozma ravishda yuborishdan bosh tortganda;

- xayriya va tijorat homiyligini amalga oshirish uchun hujjatli dalillar mavjud bo'lmaganda;

- xayriya va tijorat homiyligi mablag'laridan kelgusida foydalanish uchun shaffoflik mavjud emas yoki cheklangan deb hisoblanganda;

- so'rov naqd pul (banknotalarni) to'lash to'g'risida yuborilganda;

- so'rovda to'lovlarni ikki yoki undan ortiq hisob varaqlariga yoki (ayniqsa, aniq bir oluvchi bilan bog'liq bo'lmagan) offshor hisob varaqlariga amalga oshirish so'ralganda;

- xayriya va tijorat homiyligi maqsadlari aniq belgilanmagan yoki uning ta'rifi o'ta mavhum keltirilganda (masalan, "bolalar hayotini yaxshilash") xayriya yoki tijorat homiyligini amalga oshirish ta'qiqlanadi.

4. Xayriya va tijorat homiyligi bo'yicha mezon va talablar

4.1. 1) Xayriya mablag'lari.

Mezonlari:

Kompaniya tomonidan xayriya mablag'larini amalga oshirish zarurati individual ravishda belgilanadi.

Maqsadlari:

- fuqarolarni ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash va himoya qilish, shu jumladan aholining ijtimoiy jihatdan muhofaza qilinmagan va kam ta'minlangan toifalarining moddiy ahvolini yaxshilash;

- jismoniy yoki intellektual xususiyatlari, boshqa holatlar sababli mustaqil ravishda o'z huquqlarini amalga oshira olmaydigan hamda qonuniy manfaatlarini himoya qila olmaydigan ishsizlarni, nogironlarni va boshqa shaxslarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish;

- xalqlar o'rtasida tinchlik, do'stlik va totuvlikni mustahkamlashga ko'maklashish;

- oilaning jamiyatdagi nufuzi va rolini mustahkamlashga ko'maklashish;

- onalik, bolalik va otalikni himoya qilishga ko'maklashish;

- ta'lim, fan, madaniyat, san'at, ma'rifat sohasidagi faoliyatga, shuningdek shaxsning ma'naviy kamol topishiga ko'maklashish;

- kasalliklar profilaktikasi va fuqarolar sog'lig'ini saqlash sohasidagi faoliyatga, shuningdek sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishga ko'maklashish, fuqarolarga ma'naviy-ruhiy yordam ko'rsatish;

- jismoniy tarbiya va ommaviy sport sohasidagi faoliyatga ko'maklashish;

- aholini tabiiy ofatlar, ekologiya, sanoat halokatlari yoki boshqa halokatlarni oqibatlarini bartaraf etishga, baxtsiz hodisalarning oldini olishga tayyorlash;

- terrorchilik harakatlari, tabiiy ofatlar, ekologiya, sanoat halokatlari yoki boshqa halokatlarni natijasida jabrlanganlarga yordam ko'rsatish;

- atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish;

- madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish;

- qo'llanilayotgan qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladigan boshqa maqsadlarni joriy qilish uchun amalga oshiriladi.

Talablari:

- qonuniy maqomga hamda vijdonli va halol tijorat operatsiyalarini olib boruvchi tashkilot sifatida nufuzga ega tashkilotlar foydasiga amalga oshiriladi;

- Kompaniyaning tegishli siyosati va protseduralariga mos kelishi bo'yicha tekshiruvdan o'tkaziladi.

2) Ijtimoiy investitsiya

Maqsadlari:

- jamiyatga yangi texnika va texnologiyalarni ishlab chiqarish tizimlarini tadbiq qilish;

- yirik sanoat tarmoqlari orqali zaruriy tajriba-sinov loyihalarini o'tkazish, hamda ularga tayyorgarlik tadbirlarini tashkillashtirish;

- sanoat tarmog'ini rivojlantirish orqali jamiyatda ishsizlik darajasini kamaytirish va ish bilan band bo'lgan faol aholi qatlamini kengaytirish;

- jamiyatga avtomobilsozlik va muhandislik tadqiqotlari sifatini, innovatsiya va yutuqlarini oshirishning yangi va samarali usullarini taklif qilish;

- loyihalar natijalarga asoslanishi hamda ayniqsa Kompaniyaning sanoat hamkorligi, innovatsiyalar, Komplayens va ishbilarmonlik etikasi bilan bog'liq qadriyatlariga muvofiq bo'lishi kerak.

Talablari:

- uchinchi shaxslar orqali emas, balki to'g'ridan-to'g'ri yakuniy oluvchilarga nisbatan amalga oshiriladi;

- imkoni mavjud hollarda tovar moddiy boyliklar shaklida amalga oshiriladi;

- biron-bir tanlov yoki o‘yinda g‘olibni aniqlash protsedurasi xolis, ochiq, shaffof bo‘lishi va noqonuniy ko‘rinishdagi harakat sifatida qabul qilinmasligi kerak;

4.2. Tijorat homiyligi.

Mezonlari:

- muhim anjuman yoki ommaviy madaniy yoki sport tadbirlari kabi shov-shuvli tadbir, faoliyat yoki tashkilotni qo‘llab-quvvatlash uchun amalga oshiriladi;

- qonuniy maqomga ega shaxslarga nisbatan tatbiq qilinishi hamda Kompaniyaga iqtisodiy samara berishi va uning mavqei oshishiga imkoniyat yaratishi lozim.

Talablari:

- biznes taklifga asoslanishi va muayyan maqsadga ega bo‘lishi;

- tijorat foydalari va xarajatlari shu kabi maqsadlarga boshqa usullar yordamida erishilgan xarajatlar bilan taqqoslanishi;

- aniq va puxta tayyorlangan, shu jumladan, me'yor va talablarga rioya etilishi tekshirilgan va tijorat foydalari bor-yo‘qligiga oid hujjatlar mavjud bo‘lishi kerak.

4.3. Xayriya yoki homiylik yordamini olishdagi talablar:

- donor yoki homiy bilan shartnoma tuzilishi, unda xayriya yoki homiylikni olish va undan foydalanish maqsadlari, yordam shakllari, yordamning pul ifodasidagi miqdori, shuningdek, donor oldida hisobot berish usuli ko‘rsatilishi yoki olingan yordamdan foydalanish rejasi to‘g‘risida homiy xabardor bo‘lishi;

- Kompaniyaning internet tarmog‘idagi rasmiy veb-saytida olingan xayriya yoki homiylik yordamiga doir axborotni joylashtirishi kerak.

5. Siyosat talablari buzilishi to‘g‘risida xabar qilish, tekshirish va javobgarlik choralari.

5.1. Har qanday shaxs ushbu Siyosat bo‘yicha maslahat olmoqchi yoki Siyosat talablari buzilishi holatlari bo‘yicha xabar qilmoqchi bo‘lsa, Kompaniyaning +998 78 140 76 70 ishonch telefoni, “compliance@uzavtosanoat.uz” elektron pochta manzili, “Uzavtosanoat_compliance_bot” telegram messenjeri, “https://uzavtosanoat.uz/compliance/feedback” veb-sayti orqali Komplayens xizmatiga murojaat qilishi mumkin.

5.2. Kompaniya Siyosat talablari buzilishi haqida xabar qilgan shaxslar ta'qibga uchramasligi va so‘roviga asosan shaxsi ochiqlanmasligini kafolatlaydi.

5.3. Xodimlar tomonidan ushbu tartib-taomillarning buzilishi xizmat tekshiruvini o'tkazilishiga sabab bo'ladi va qonunchilikda belgilangan javobgarlikni keltirib chiqarishi mumkin.

6. Yakunlovchi qoidalar

6.1. Siyosat talablarini amalga oshirish jarayoni alohida ishlab chiqilgan "Tartib" asosida olib boriladi.

6.2. Ushbu Siyosat Odob-axloq qoidalari, Poraxo'rlik va korrupsiyaga qarshi kurashish, Sanksiyalar va eksport nazorati, Firibgarlikka qarshi kurashish, Manfaatlarni to'qnashuvi bo'yicha siyosatlar, Biznes hamkorlarni kompleks tekshirish siyosatlari bilan birgalikda qo'llaniladi.